



**International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health**

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

28<sup>th</sup> February, 2025

---

**APELLYATIV LEKSIK BIRLIKLARINING NANOTIBBIYOT  
REKLAMALARIDA QO‘LLANISH KO‘LAMI  
(O‘ZBEK VA RUS TILLARI MISOLIDA)**

**СПОСОБЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ АПЕЛЛЯТИВНОЙ ЛЕКСИКИ В  
РЕКЛАМАХ НАНОМЕДИЦИНЫ  
(НА МАТЕРИАЛЕ УЗБЕКСКОГО И РУССКОГО ЯЗЫКОВ)**

**WAYS OF USING APPELLATIVE VOCABULARY IN NANOMEDICINE  
ADVERTISEMENTS  
(BASED ON THE UZBEK AND RUSSIAN LANGUAGES)**

Abu Ali ibn Sino nomidagi  
Buxoro davlat tibbiyot instituti  
“Ijtimoiy fanlar” kafedrasida assistenti  
Jomardova Dilafuz Qahramonovna  
[dilafuz\\_jomardova@bsmi.uz](mailto:dilafuz_jomardova@bsmi.uz)  
+998 93 689 68 38

**Annotasiya:**

Mazkur maqolada apellyativ leksikaning o‘zbek va rus tillarida taqdim etilgan nanotibbiyot reklama matnlarida aks etilishi tahlil qilingan. Tahlil jarayonida nanotibbiyotda 6 ta asosiy yo‘nalish mavjudligi aniqlanilib, ushbu yo‘nalishlarda yaratilgan reklama matnlarida apellyativ leksikaning ifodalanishini leksik-tematik guruhlar orqali tavsiflashga harakat qilindi. Nanotibbiyotning ananaviy tibbiyotga integratsiyalashuvi lingvistik jihatdan o‘rganilgan.

**Kalit so‘zlar:** nanotibbiyot, atama, reklama matni, dori vositalari, davolash vositalari, terapiyaning yangi usullari, implantlar.

Nanotibbiyot sohasining so‘nggi yillarda erishgan yutuqlari va ushbu yutuqlarning tibbiy xizmatlar reklama matnlarida sohaga tegishli apellyativ leksik birliklar ishtirokida aks etishining o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rib chiqamiz va tahlil



## International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

28<sup>th</sup> February, 2025

qilishga harakat qilamiz. Tibbiyotning bunday zamonaviy yo‘nalishining taraqqiyot etishi, soha bilan bog‘liq yangi atamalarning shakllanishiga zamin yaratadi. Bu yangi paydo bo‘lgan va nanotibbiyotda faollashgan atamalar aksariyat qismini apellyativ leksik birliklar tashkil etayotganini inobatga oladigan bo‘lsak, ularni o‘rganish tilshunos olimlardan sohaga oid zamonaviy tadqiqotlar olib borishni talab etadi.

Nanotibbiyotga tegishli bo‘lgan nazariy va amaliy tushunchalardan kelib chiqqan holda, mavjud nanotibbiyot atamalarini apellyativ leksika sifatida qabul qilib, ular aks etgan tibbiy xizmatlar, tibbiy jihozlar va farmatsevtika vositalari reklama matnlarini leksik-tematik guruhlariga ajratgan holda lingvistik tahlil qilamiz.

Tahlil jarayonida nanotibbiyotda 6 ta asosiy yo‘nalish mavjudligini aniqladik va ushbu yo‘nalishlarda yaratilgan reklama matnlarida apellyativ leksikaning ifodalanishini leksik-tematik guruhlar orqali tavsiflashga harakat qildik. Bular:

1) dori vositalarini organizmdagi shikastlangan to‘qima yoki hujayralarga to‘g‘ridan to‘g‘ri kerakli manzilga yetkazib berish (oldindan rejalashtirilgan hujayra va to‘qimalar joylashgan yuzaga mo‘ljallagan holda):

**o‘zbek tilida:** “ОФЛОМИЛ tirnoq bo‘yog‘i. Zamburug‘ni unut. Haftada 1-2 marta qo‘llaniladi. 10 kungacha faol konsentratsiyani saqlaydi” (tirnoq bo‘yog‘i/краска(лак) для ногтя); bu guruhga tegishli rus tilida misollar biz tomondan aniqlanmadi.

2) nano kattaligida bo‘lgan davolash vositalarini yaratish:

**rus tilida:** “Лечение БАС: клеточная технология, разработанная в Швейцарии. Трансплантация стволовых клеток – единственный безопасный и эффективный метод лечения бокового амиотрофического склероза. В клинических отделениях Пресижн Медикал разработан и применяется более трёх лет уникальная методика комбинированного ведение стволовых клеток” (клеточная технология/hujayra texnologiyasi, трансплантация стволовых клеток/hujayralar transplantatsiyasi); “Инновационное изобретение для восстановления слуха. Эффективность 98,6%” (инновационное изобретение /innovatsion kashfiyot).



## International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

28<sup>th</sup> February, 2025

3) invivo lot.(jonli organizm) yoki invitro lot.(jonsiz organizm) vositalari orqali davolash usullariga mo'ljallangan diagnostika tizimini ishlab chiqish:

**o'zbek tilida:** “Operatsiya va og'riqlarsiz! Regenerativ tibbiyot og'riqsiz hamda samarali davolash kabi noyob sifatlarga ega. Ushbu usul 13 yo'nalishni o'z ichiga qamrab olgan bo'lib, biz travmatologiya-ortopediya va kosmetologiyadan boshladik. Davomiyligi: muolaja turidan kelib chiqqan holda, 1 soatdan 3 soatgacha. Muolajadan keyingi tiklanish: ambulator tarzda, gospitalizatsiyasiz va umumiy anesteziya qo'llanmagan holda. Shu paytgacha nojo'ya ta'sirlar kuzatilmagan! Qarshi ko'rsatmalar: aniqlash uchun shifokor konsultatsiyasi zarur. Manzil: Maxtumquli ko'chasi, 119. Ish tartibi: Dushanba-juma 9:00 dan 18:00 gacha | Shanba – o'zgaruvchan tartibda. Tel: +998 91 006 89 93; +998 91 006 89 92” (regenerativ tibbiyot/регенеративная медицина);

**rus tilida:** “Клиника PROMED компания по пересадке волос. Слышали ли Вы о пакете по персадке волос, включающий в себя лечение стволовыми клетками? Пересадка волос - без бритья, благодаря методу ДНН”; «Без операции и боли! Регенеративная медицина обладает такими уникальными качествами, как безболезненное и эффективное лечение. Данный метод охватывает более 13 направлений: мы начали с травматологии-ортопедии и косметологии. Длительность: от 1 до 3-х часов, в зависимости от вида процедуры. Восстановление после процедуры: амбулаторное проведение, без госпитализации и общей анестезии. Побочных действий до сих пор не наблюдалось! Противопоказания: необходима консультация врача. Адрес: ул. Махтумкули 119. График работы: Пн - пт с 09:00 до 18:00 | Сб гибкий график. Тел: +998 91 006 89 93; +998 91 006 89 92” (регенеративная медицина/regenerativ tibbiyot);

4) terapiyaning yangi usullari:

**o'zbek tilida:** “Azimed Hospital Semirishga sabab bo'ladigan garmonlar. Manzil: Buxoro shahar X.T.Buxoriy ko'chasi. Mo'ljal “Buyuk ipak yo'li” restoran orqasida “Dilkash”; “M-Clinic ko'pfunksiyali tibbiyot markazida ekstrakorporal detoksikatsiya amaliyoti muvaffaqiyatli qo'llanadi.Bu qonni zaharli tarkibiy



## International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

28<sup>th</sup> February, 2025

qismlardan tozalash amaliyotidir. M-Clinic mutaxassislari zamonaviy asbob-uskunalar yordamida membrana plazmaferezini amalga oshiradilar, bu esa atigi 3–5 seans natijasida bemor qonini tozalash imkonini beradi. Organizmdagi qon tozalangandan so‘ng barcha patologik holatlar tiklanadi va bemorlar o‘zlarini yaxshi his qila boshlaydi. Qabulga yozilish uchun quyidagi telefon raqami orqali qabulxonaga murojaat qiling: +998 (55) 508-13-30 M-Clinic, sizga mehr bilan!” (membrana plazmaferez/плазмаферез мембраны); “Siz ham varikozingizni davolashdan qo‘rqaysizmi? Endi qo‘rqishni umuman keragi yo‘q sababi bizning Far Phlebos klinikamizda hozirgi kunda eng zamonaviy turdagi lazer operatsiyasi usuli yo‘lga qo‘yilgan. Bunda Siz xech qanday chandiqlarsiz va eng asosiysi og‘riqlarsiz varikozdan xalos bo‘lasiz. Aoperatsiyani ko‘p yillik tajribaga ega malakali mutaxassislar qilishadi. Murojat uchun: +998954011596; +998732261596” (lazer operatsiyasi/лазерная операция); “Ushbu rentgen qurilmasi: tish, burun, jag‘ qismi va qo‘l bo‘g‘im suyaklarini 3D ko‘rish imkonini beradi. Qurilmaning 360 gradusda skanerlash imkoniyati tekshirilayotgan tana qismidagi mayda o‘zgarishlarni yuqori aniqlikda tekshirish imkonini beradi” (3D ko‘rish imkoni/3D изображение); “O‘zbekistonda birinchi marta! Soch va bosh terisini bepul tekshirtirish uchun qabulga yoziling: Bosh terisidagi muammolarni aniqlash. Tajribali shifokor-trixolog bilan maslahatlashish. Eng zamonaviy uskunalar yordamida diagnostika. Toshkent: Bunyodkor shoh ko‘chasi, 15/1. Tel: +99890 016 11 88; +99890 016 33 88” (eng zamonaviy uskunalar/самые современные оборудования);

**rus tilida:** “MEDIPOL GLOBAL 1000 операций по установке стимулятора головного мозга – технологический подход в лечении Болезни Паркинсона” (стимулятор головного мозга/bosh miya stimulyatori); “ANADOLU medical center\_ru Трансплантация костного мозга поможет победить рак” (трансплантация костного мозга/illik ko‘chirish, illik transplantatsiyasi); “Откройте новую эру диагностики с УЗИ аппаратом Vivid S70! Высокое качество изображений, передовые технологии и удобство в использовании – все это в одном устройстве. Узнайте больше информации на нашем сайте [diatech.uz](https://diatech.uz). ([https://diatech.uz/](https://diatech.uz)) Так же вы можете узнать всю информацию по данному номеру телефона : +99895-302-00-08” (УЗИ аппарат Vivid S70/Vivid



# E CONF SERIES



## International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

28<sup>th</sup> February, 2025

S70 UTT apparati); “Пресижн Медикал Лечение онкологических заболеваний на любой стадии! Natural Killer Cell (НК) терапия и терапия с помощью онколитических вирусов - это безопасная и эффективная альтернатива стандартным методам лечения. Запишитесь на бесплатную онлайн консультацию на нашем сайте” (онколитические вирусы/onkolitik viruslar); “Теперь в Ташкенте! Революционная Радиоволновая Блефаропластика - это новое слово в мире пластической хирургии. Главные преимущества которого: быстрое заживление, менее травматично, аккуратней шов, революционная технология. Переходите на наш Telegram канал, чтобы увидеть готовые работы и узнать подробнее @Dr\_tszen +99894 6349000” (радиоволновая блефаропластика/radioto‘lqinli blefaroplastika).

5) yangi biomateriallar ixtiro etish:

**o‘zbek tilida:** “Kataraktani davolash! Og‘riqsiz. Tez. Ambulator. Dunyoning eng yetakchi ishlab chiqaruvchi (AQSh “Alkon”, Germaniya “Carl Zeiss”) yumshoq sun‘iy gavharlarini qo‘yish bilan. Samarqand sh. Lutfiy ko‘chasi 70 uy “Dr. Anvar Namazov” ko‘z klinikasi. +99891331-51-51, +99891248-03-30” (yumshoq sun‘iy gavhar/искусственный мягкий хрусталик); bu guruhga tegishli rus tilida misollar biz tomondan aniqlanmadi.

6) implantlar yaratish:

**rus tilida:** “Denta Bio Вухого Высококачественный имплант-каронка 2. 200. 000” (имплант-каронка/implant koronka); “**INSTALUS** Стоматологические премиум-услуги в Турции. Протезирование на 4-х имплантах в Турции. Надежно! Долговечно! Удобно! Эстетично! Приживление конструкций 99%” (протезирование на 4-х имплантах/4 ta implantni protezlash); “**Veni Vidi Eye International** Мы к Вашим услугам с 30-летним опытом работы в Турции. Имплантация иол в Турции” (имплантация иол/sun‘iy ko‘z gavhari implantatsiyasi); “NBF centre доктор Хасан Гочер ортопед и травматолог. Замена плеча и локти. Операция по замене коленного сустава, тазобедренного сустава. Кальцификация тазобедренного сустава (коксартроз). Кальцификация коленного сустава” (замена плеча и локти, замена коленного сустава, тазобедренного сустава, кальцификация тазобедренного сустава (коксартроз). кальцификация коленного сустава/yelka va tirsakni almashtirish,



# E CONF SERIES



## International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

28<sup>th</sup> February, 2025

tizza bo‘g‘imini almashtirish, chanoq-son bo‘g‘imini almashtirish, chanoq-son bo‘g‘imini kalsifikasilash (koksartroz), tizza bo‘g‘imining kalsifikasilanishi) va b.

Bundan tashqari, hozirgi kunda boshqa sohalarda bo‘lgani kabi, nanotexnologiyaning bir yo‘nalishi bo‘lgan nanotibbiyotning ananaviy tibbiyotga integratsiyalashuvi kuzatilmoqda. Bunga Quyosh chiqar davlat – Yapon nanotibbiyotining dunyo ananaviy tibbiyotida integratsiyasi aks etgan tibbiy xizmatlarning **rus tilida** aks etgan “Нехирургическое повторное лечение. Лекция+демонстрация с микроскопом. Алматы, Казахстан 19 ноября, 2023. Впервые легенда эндодонтии, лектор мирового уровня в Центральной Азии Йоши Тераучи” reklama matni misol bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, jahonda o‘tkazilayotgan tibbiy amaliyotlar va bu sohada erishilayotgan yutuqlarga tegishli ma’lumotlarga tayangan holda, Germaniya, AQSh, Isroil, Yaponiya, Janubiy Koreya, Hindiston, Turkiya kabi davlatlar tibbiyot sohasida peshqadamlik qilmoqda desak adashmagan bo‘lamiz. Ushbu peshqadamlik nanotibbiyot sohasida olib borilayotgan izlanishlarda namoyon bo‘lmoqda va bu o‘z navbatida dunyo tillarining leksik sathi, jumladan o‘zbek tili: nano botoks, piling box, KIERS 144 apparati va rus tili: лазер для депиляции, абдоминопластика, клеточная технология, робот Lokomat, стимулятор головного мозга, o‘zb. ЕКО / rus. ЕКУ kabi apellyativ leksik birliklar bilan faollashmoqda.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Qosimova N. Reklamada musiqadan foydalanish // Ozbekiston matbuoti. - Toshkent, 2011.-№4. -B. 50-51.
- 2.Энциклопедический словарь медицинских терминов. -М. Советская энциклопедия. -1982-1984 гг.
4. <https://ria.ru/20171002/1505888158.html>
5. <https://www.nanoindustry.su/news/11484>